

**DAVOLASH ISHI YO‘NALISHI TALABALARIGA
DERMATOVENEROLOGIYA FANINI O‘QITISHDA TALABALARNING KLINIK
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN PEDAGOGIK
FAOLIYATNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.**

Po'latov Boburbek Ta'lat O'g'li

Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola davolash ishi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga dermatovenerologiya fanini o‘qitishda klinik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning o‘ziga xos jihatlari o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, interaktiv metodlarni qo‘llash va talabalarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun maxsus sharoitlar yaratishning ahamiyati ta’kidlangan. Shuningdek, maqolada klinik kompetentlikni rivojlantirish uchun muhim bo‘lgan kuzatuvchanlik, tahlil qilish, mantiqiy va ijodiy fikrlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish metodlari tahlil qilingan. Talabalarni real klinik vaziyatlarga tayyorlashda diagnostika, tibbiy deontologiya va kasbiy etika tamoyillarini singdirishning dolzarbligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: dermatovenerologiya, davolash ishi, klinik kompetentlik, tibbiy ta’lim, pedagogik faoliyat, innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar, amaliy ko‘nikmalar, tibbiy deontologiya, diagnostika, kasbiy etika, analitik fikrlash, real klinik vaziyatlar..

Abstract: This article highlights the significance and effectiveness of utilizing innovative approaches in teaching dermatovenerology within the medical education system. It emphasizes the development and enhancement of students' professional skills through modern pedagogical technologies, interactive methods, and simulation models, showcasing the results achieved in this process.

Keywords: dermatovenerology, medical practice, clinical competence, medical education, pedagogical activity, innovative technologies, interactive methods, practical skills, medical deontology, diagnostics, professional ethics, analytical thinking, real clinical scenarios.

Klinik kompetentlik tushunchasi bugungi kunda ko‘p uchrayotgan atamalardan biridir. Klinik kompetentlik – bo‘lajak shifokor tomonidan kerakli faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni klinik amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasidir [1].

“Klinik kompetentlik” tushunchasi - shifokorlarning muayyan faoliyat sohalari bo‘yicha qarorlar qabul qilishlari bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma, malaka, tajribalarini aks ettiruvchi klinik va shaxsiy sifatlarining integral tavsifi” deyilgan [2].

Boshqa bir tarifda “klinik o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishning variativligi, optimalligi va samaradorligini ta’minlovchi bilim, malaka, shaxsning xususiyatlari va sifatlarini o‘z ichiga olgan murakkab ta’lim [3].

Bizningcha, klinik kompetentlik - bu kommunikativlik (boshqalar bilan aloqa o'rnatish faoliyatini tashkil qilishi uchun zarur bo'lgan bilim, malaka, ko'nikma va tajribasidir), individuallik (o'ziga xoslik, betakrorlik), analitik (tahliliy fikrlash, axborot haqida tanqidiy va oqilona fikrlash qobiliyati), tibbiy- deontologik (tibbiyot xodimlarining kasbga aloqador etikasi, doridarmon, umuman davoning ta'sirini oshirishga karatilgan xulqatvor taomillari) kabi ko'nikmalarning yig'indisi bo'lib, sohaga oid yangi bilimlarni o'zlashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

Talabalarning klinik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat uzoq muddatli, murakkab jarayondir. Qolaversa, u "uzluksiz, dinamik va o'z-o'zini rivojlantirish xarakteriga ega ochiq tizim" sifatida namoyon bo'ladi [4].

Bizningcha, talabalarda quyidagi pedagogik, klinik kompetensiyalar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

- dermatovenerologiya fani bo'yicha o'quv-klinik ishlarning sifatini oshirish uchun xizmat qiladigan predmetli-metodik malakalarni o'zlashtirish;
- pedagogik va klinik faoliyatda turli ijtimoiy-psixologik tavsifga ega ta'lim oluvchilar guruhlarini qabul qilish qobiliyati va bunga tayyorlik;
- ta'lim muassasalarida o'quv-klinik ishlarni uyushtirish jarayonida klinik bilimlarni qo'llash qobiliyatiga egalik;
- tibbiy o'quv darsliklarini tanqidiy tahlil qilish va ulardan foydalanish qobiliyatiga egalik;
- mutaxassislik bo'yicha mustaqil bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish, klinik malakasi, professionallik darajasini oshirish qobiliyatiga egalik;
- loyihalash faoliyatini tashkil qilish qobiliyatiga egalik va tayyorlik [5].

Demak, dermatovenerologiyada talabalarda klinik kompetentlikni rivojlantirish masalalari u yoki bu mustaqil tadqiqotlarning obyektlari sifatida tanlangan. Bu esa tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida quyidagi klinik kompetensiyalarga ega bo'lishi lozimligini ko'rsatadi [6]:

- birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari (tuman ko'p tarmoqli poliklinikalar, oilaviy poliklinika va oilaviy shifokor punktlari) bo'lim mudirlari, bosh vrachlari yordamchilari, tuman va shahar markaziy shifoxonalari bosh vrachlarining birinchi o'rinbosalarining yordamchilari;
- shoshilinch tez tibbiy yordam ilmiy-amaliy markazi, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati hamda ularning hududiy filiallari bosh vrach o'rinbosarlari yordamchilari;
- shoshilinch tez tibbiy yordam ilmiy-amaliy markazi, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati hamda ularning hududiy filiallari bosh vrach o'rinbosarlari yordamchilari;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy iqtisodiy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;

- tashkilot, korxona va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- sog'liqni saqlashda birlamchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish [7].

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'grisidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

- loyihalar samaradorligini baholash;

- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash kabi kompetetnsiyalarga ega bo'lishi kerak [8].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, davolash ishi yo'nalishi talabalari uchun dermatovenerologiya fanini o'qitishda klinik kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat zamonaviy ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Ushbu faoliyatning samaradorligi, birinchi navbatda, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, interaktiv usullarni tatbiq etish va talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq. Ayniqsa, real klinik holatlar asosida mantiqiy tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va professional etika tamoyillariga rioya qilish orqali talabalar kasbiy mahoratini oshirishga erishiladi. Shuningdek, pedagogik faoliyatning ushbu yo'nalishi talabalarning kasbiy motivatsiyasini oshirib, ularda analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli dermatovenerologiya fanini o'qitish jarayonida o'qituvchilar tomonidan innovatsion yondashuvlar va maxsus metodik yondashuvlarni tizimli qo'llash talabalarning klinik kompetentligini shakllantirishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Сластенин В.А. Профессионализм педагога: акмеологический контекст // Ж. Педагогическое образование и наука. – М.: 2022. – № 4. – С. 9.

2. Навойчик Е.Ю. Формирование профессиональной компетенции учителей истории и обществознания в пространстве образования как открытой системы // Ж. Вестник Омского ГПУа. Гуманитарные исследования. – Омск: 2021. - № 2 (6). – С. 116.

3. Komilov N. Oliy tibbiy ta’limning umumiy tendensiyalari va qonuniyatlarini rivojlantirishda tibbiyot tarixi fanining o’rni // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2023, №9. – bb.770–774.

4. Komilov N. Instructional potential of teaching the history of medicine to international students in higher medical education institutions // Modern Scientific Research International Scientific Journal, 2025, Vol. 4, № 1. -P.71-75.

5. Komilov N. Teaching history of medicine to foreign students is a vital factor of pedagogy // World of Scientific news in Science. No. 3/2. 2024. -R.51-55.

6. Komilov N. The concept of forming the exclusive competence of foreign students by teaching the history of medicine through the “Connect-extend-challenge model” // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2023, №10. –pp.781–787.

7. Komilov N. The role of the history of medicine in the development of general trends and patterns of higher medical education // Scientific Bulletin of Namangan State University, 2023, No. 9. – P.770–774

8. Komilov N. Modern tendencies of teaching history of medicine in higher medical educational institutions and their analysis // Solution of social problems in management and economy. International scientific online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8154487>. - Spain, 2023. – P. 17–21.